

## YASSAVIY HIKMATLARI TAHLILI: OBRAZ, MAVZU VA TIMSOL.

**Fayzullayeva Barno Sharof qizi***Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti  
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti 1-kurs talabasi.***Suyunova Dilbar***Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlarining badiiy va g‘oyaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, hikmatlarda uchraydigan obrazlar tizimi, tasavvufiy mavzular, inson ma‘naviy kamoloti, nafs tarbiyasi hamda axloqiy qarashlar yoritiladi. Maqolada hikmatlardan namunalar keltirilib, ulardagi ramziy ma‘nolar va badiiy tasvir vositalari izohlanadi. Shuningdek, Yassaviy ijodining turkiy adabiyot va ma‘naviyat rivojidagi o‘rni ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida hikmatlarning bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasi va ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.*

Ahmad Yassaviy (taxminan -asr oxiri – -yil) turkiy tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi, Yassaviya tariqatining asoschisi va turkiy tilda hikmatlar yozish an‘anasini boshlab bergan mutafakkirdir. Uning hayoti va ijodi Markaziy Osiyo xalqlari ma‘naviy-madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Yassaviyning “Devoni Hikmat” asari asrlar davomida turkiy xalqlar orasida keng tarqalib, ularning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Ahmad Yassaviyning tug‘ilgan joyi hozirgi Qozog‘istonning Sayram shahri bo‘lib, u yoshligidan ilohiy bilimlarga intilgan. Uning ilk ustози Arslonbobo bo‘lgan, keyinchalik Buxoroda Yusuf Hamadoniyning muridi bo‘lib, tasavvuf ilmining sir-asrorlarini chuqur o‘rgangan .

“Hikmat” janrining o‘ziga xos xususiyatlari Yassaviy ijodining o‘zagi hisoblanadi. Hikmatlar – bu chuqur falsafiy va tasavvufiy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan, sodda va ravon tilda yozilgan she‘riy asarlardir. Ular asosan pand-nasihati, axloqiy-ta‘limiy mazmunga ega bo‘lib, insonni komillikka yetaklash, nafsni jilovlash, Allohga muhabbat va sabr-qanoatga chorlaydi. Yassaviy hikmatlari turkiy xalqlar tushunadigan tilda yozilganligi sababli keng omma orasida tez tarqalgan va ularning qalbidan joy olgan. Bu hikmatlar nafaqat diniy-tasavvufiy asarlar, balki o‘zbek adabiyoti va tilining rivojlanishiga ham ulkan hissa qo‘shgan . Yassaviy hikmatlarida “ilmi laduniy”, ya‘ni ilohiy sirlarni kashf etish ma‘nosi ham mujassamdir.

Yassaviy hikmatlarining asosiy mavzulari.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining markazida tasavvuf g‘oyalari turadi. Uning ijodida ilohiy ishq, Haqqa yetishish, zikr va fikr orqali Allohga yaqinlashish kabi mavzular yetakchilik qiladi. Yassaviy tasavvufni oddiy xalq tushunadigan tilda, hayotiy misollar bilan tushuntirib bergan. Uning hikmatlarida axloq-odob masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Insonning pokligi, halolligi, rostgo‘yligi, kamtarligi va boshqalarga nisbatan mehr-shafqati doimiy ravishda targ‘ib qilinadi. Yassaviy insonni komillikka intilishga, o‘z nafsini jilovlab, ma’naviy yuksalishga chaqiradi. Bu yo‘lda sabr va tavba asosiy vositalardan hisoblanadi. Har bir inson o‘z gunohlariga tavba qilib, sabr bilan Haq yo‘lida sobit turishi lozimligi uqtiriladi. Nafsi tiyish Yassaviy hikmatlarining eng asosiy mavzularidan biridir. Nafs insonning eng katta dushmani sifatida tasvirlanib, uni jilovlash orqali haqiqiy baxtga erishish mumkinligi ta’kidlanadi. Nihoyat, Allohga muhabbat barcha mavzularni birlashtiruvchi asosiy g‘oyadir. Yassaviyning har bir hikmati Allohga bo‘lgan cheksiz ishq va muhabbatni tarannum etadi.

#### Hikmatlarda uchraydigan obrazlar tahlili

Yassaviy hikmatlarida bir qancha ramziy obrazlar mavjud bo‘lib, ular tasavvufiy g‘oyalarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi:

• Oshiq: Bu obraz Allohga bo‘lgan cheksiz ishq va muhabbatda yonib yashaydigan, dunyo matohidan kechgan, Haq diydoriga intiluvchi solikni anglatadi. Oshiq o‘z jonini fido qilishga tayyor, ma’shuqasi (Alloh) yo‘lida har qanday mashaqqatga chidaydi. Masalan,

‘Ishq bobini Mavlom ochqach meniga tegdi,

Tuproq qilib, hozir bo‘l, deb bo‘ynum egdi’

misralarida oshiqning ilohiy ishq oldidagi taslimiyati ko‘rinadi .

• Murshid: Murshid – bu solikni Haq yo‘liga boshlovchi, unga ma’naviy ustozlik qiluvchi pir. Yassaviy o‘z hikmatlarida Arslonbob va Yusuf Hamadoniyni o‘zining murshidlari sifatida e’tirof etadi. Murshidning ko‘rsatmalari solik uchun najot yo‘li hisoblanadi. “Pir mug‘on xizmatida yugrub yurdim, / Xizmat qilib, ko‘zim yummay hozir turdim” misralari murshidga bo‘lgan hurmat va sadoqatni aks ettiradi .

• Darvesh: Darvesh obrazi dunyo lazatlaridan voz kechgan, faqirlik va qanoatni o‘ziga shior qilgan, Allohga yaqinlashishni maqsad qilgan insonni ifodalaydi. Darvesh moddiy boyliklardan ustun turuvchi ma’naviy boylikka ega bo‘ladi. “G‘arib, faqir, yetimlarni Rasul so‘rdi, / O‘shal tuni Me’roj chiqib diydor ko‘rdi” hikmatida darveshlikning ulug‘ martabasi ulug‘lanadi.

Solih inson: Bu obraz Allohning amrlariga to‘liq amal qiluvchi, taqvodor, axloqan pok va namuna bo‘ladigan kishini anglatadi. Solih inson jamiyatda ezgulikni targ‘ib qiladi va boshqalarga yaxshi o‘rnak bo‘ladi.

Nafs timsoli: Yassaviy hikmatlarida nafs insonning eng katta dushmani, uni gunohga undovchi kuch sifatida tasvirlanadi. Nafs ko‘pincha “it” yoki “yomon yo‘ldosh” kabi salbiy obrazlar orqali ifodalanadi. Nafsni jilovlash, uni to‘g‘ri yo‘lga solish komillikka erishishning asosiy shartidir. “Nafsim o‘lub, lomakonqa oshtim mano” misrasida nafs ustidan g‘alaba qozonishning ma‘naviy yuksalishga olib kelishi ko‘rsatilgan .

Timsollar va ramziy obrazlarning ma‘nosi

Yassaviy hikmatlarida chuqur ma‘no kasb etuvchi bir qancha timsollar va ramziy obrazlar mavjud:

- Ishq: Bu timsol ilohiy muhabbatni anglatadi. Yassaviy uchun ishq – bu Allohga yetishishning yagona yo‘li, insonni poklovchi va yuksaltiruvchi kuch. Ishq olovi inson qalbini kuydirib, uni dunyoviy bog‘lanishlardan xalos etadi. “Ishq domig‘a tushmag‘on, sir ma‘nosin bilmag‘on, / Dunyo mehrin qo‘ymag‘on, tongla rasvo bo‘lur” misralari ishqning ahamiyatini ko‘rsatadi .

- Yo‘l: Tasavvufiy ma‘noda “yo‘l” – bu tariqat yo‘li, Haqqa eltuvchi ma‘naviy safar. Solik bu yo‘lda murshidning ko‘rsatmalari asosida harakat qiladi, turli sinovlardan o‘tadi va ma‘naviy darajalarga erishadi. “Yo‘l” timsoli insonning hayotdagi ma‘naviy izlanishlarini ifodalaydi.

- Nur: Nur timsoli ma‘rifat, ilohiy tajalliy va hidoyatni anglatadi. Allohning nuri inson qalbini yoritib, unga haqiqatni ko‘rsatadi. Yassaviy hikmatlarida nur ko‘pincha ilohiy bilim va hikmatning ramzi sifatida keladi. “Nur – irfoniy ilm, ma‘rifat, ishq, solik qalbini yorituvchi ilohiy nur, diydor (nuri tajalliy) ma‘nolarini ham anglatgan”.

- Qalb: Qalb Yassaviy hikmatlarida Allohning makoni, ilohiy sirlar mujassam bo‘lgan joy sifatida tasvirlanadi. Insonning qalbi pok bo‘lsa, u Allohga yaqinlashadi. “Ko‘ngil – Haqning uyi” degan tasavvufiy tushuncha Yassaviy ijodida keng qo‘llaniladi. Qalbni dunyoviy kirlardan tozalash komillikka erishishning muhim shartidir.

- Dunyo va oxirat timsollari: Yassaviy hikmatlarida dunyo o‘tkinchi, foniy va aldovchi maskan sifatida tasvirlanadi. Oxirat esa abadiy, haqiqiy hayot makoni hisoblanadi.

Inson dunyo matohlariga bog‘lanib qolmasligi, balki oxirat uchun amallar qilishi lozimligi uqtiriladi. “Bu dunyo borcha xalqdin o‘tar” misrasi dunyoning o‘tkinchiligini ta‘kidlaydi.

Hikmatlardan namunalar va tahlil

Yassaviy hikmatlaridan bir nechtasini tahlil qilamiz:

Bu hikmat Yassaviyning ijodiy niyati va maqsadini ochib beradi. U o‘z hikmatlarini “Bismilloh” bilan boshlab, ularning ilohiy manbaiga ishora qiladi. “Toliblar” – Haq yo‘lini izlovchilar, “durru gavhar” – hikmatlarning qimmatli ma‘nolari. “Riyozatni qattiq tortib, qonlar yutib” misralari Yassaviyning tasavvuf yo‘lidagi mashaqqatli izlanishlari va

fidoyiligini ko‘rsatadi. Uning hikmatlari oddiy so‘zlar emas, balki chuqur ma’naviy tajribalar mahsulidir.

Bismilloh deb bayon aylay hikmat aytib,  
 Toliblarga durru gavhar sochdim mano.  
 Riyozatni qattiq tortib, qonlar yutib,  
 Men daftari soniy so‘zin ochdim mano.  
 Qayda ko‘rsang, ko‘ngli sinuq marham bo‘lg‘il,  
 Andog‘ mazlum yo‘lda qolsa, hamdam bo‘lg‘il.  
 Ro‘zi mahshar dargohiga mahram bo‘lg‘il,

Bu hikmatda Yassaviyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari yaqqol namoyon bo‘ladi. U insonni ko‘ngli sinuq, mazlum kishilarga yordam berishga, ularga hamdam bo‘lishga chaqiradi. Bu harakatlar qiyomat kuni Alloh dargohida yuksak martabaga erishishga sabab bo‘ladi. “Movu-manlik xaloyiqdin qochtim mano” misrasi esa dunyoparast, manman kishilardan uzoqlashish, ularning suhbatidan qochish lozimligini anglatadi. Bu Yassaviyning faqirlik va kamtarlikni ulug‘lashini ko‘rsatadi.

Badiiy tasvir vositalari va til xususiyatlari:

Yassaviy hikmatlarining badiiy qudrati ularning sodda va ta’sirchan tilida, shuningdek, mahorat bilan qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarida namoyon bo‘ladi:

- Talmeh: Yassaviy hikmatlarida Qur’on oyatlari, hadislar, payg‘ambarlar va avliyolar qissalariga ishoralar (talmehlar) ko‘p uchraydi. Bu hikmatlarga chuqur diniy-ma’naviy asos beradi va ularning ta’sirchanligini oshiradi. Masalan, “G‘arib, faqir, yetimlarni Rasul so‘rdi, / O’shal tuni Me’roj chiqib diydor ko‘rdi” misralarida Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning Me’roj hodisasiga ishora qilinadi .

- Tashbeh va istiora: Yassaviy o‘z hikmatlarida tashbeh (o‘xshatish) va istiora (ko‘chirma ma’no) san’atlaridan keng foydalanadi. Masalan, nafsni “it”ga o‘xshatish, ishqni “olov”ga qiyoslash kabi. Bu tasvirlar g‘oyalarni yanada yorqinroq va tushunarliroq yetkazishga xizmat qiladi.

- Saj’: Hikmatlarda nasriy qofiya elementlari (saj’) ham uchraydi, bu ularga musiqiylik va ohangdorlik bag‘ishlaydi, esda qolishini osonlashtiradi.

- Xalqona sodda til: Yassaviy hikmatlari turkiy xalqlar tushunadigan, kundalik hayotda ishlatiladigan so‘zlar va iboralar bilan yozilgan. Bu ularning keng omma orasida tarqalishiga va sevilishiga sabab bo‘lgan. Yassaviy “chig‘atoy tilida ijod qilgan”, uning tili “sodda xalq shoirlarimizning tutg‘on yo‘li”ga yaqin bo‘lgan.

Xulosa.

Ahmad Yassaviy hikmatlari bugungi kunda ham o‘zining ma’naviy hayotdagi o‘rnini yo‘qotmagan. Globalizatsiya va axborot asrida insoniyat ma’naviy qadriyatlarga har

qachongidan ham ko‘proq ehtiyoj sezmoqda. Yassaviyning komil inson g‘oyasi, axloqiy poklikka intilish, nafsni jilovlash, sabr-qanoat va Allohga muhabbat kabi ta‘limotlari zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarbdir. Uning hikmatlari yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Hikmatlarning tarbiyaviy va axloqiy ahamiyati beqiyosdir. Ular insonni o‘z-o‘zini anglashga, ichki dunyosini boyitishga, ezgulik va adolat yo‘lida sobit turishga undaydi. Yassaviyning sodda va samimiy tilda bayon etilgan g‘oyalari har bir insonning qalbiga yetib boradi va uni yaxshilikka chorlaydi. Bu hikmatlar asrlar osha o‘z qimmatini saqlab qolgan va kelajak avlodlar uchun ham ma‘naviy meros bo‘lib qolaveradi.